

ONA TILI O'QITISHNING UMUMIY METODI

Ibroximova Vasilaxon Abdug'aniyevna

4-umumi o'rta ta'lim maktabi Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi.

Annatatsiya: Ushbu maqola ona tili metodikasini mактаб oldiga qo'yilgan ta'lim va tarbiyaviy vazifalardan kelib chiqib, ona tilini o'rgatishning vazifalarini va mazmunini belgilashi, ta'lim-tarbiya berish jarayonini tekshirishi, shu jarayonning qonuniyatlarini va ta'lim berish usullarining ilmiy asoslangan tizimini belgilashi haqida.

Kalit so'zlar: Materiallarini kuzatish, elementar, o'quv predmeti, puxta va saranjom.

Ona tili o'qitish metodikasi fanining metodologik va ilmiy asoslari. Ona tili o'qitish metodikasining metodologik asosi borliqni bilish nazariyasidir. Bu fanning bosh vazifasi o'quvchilam ing o'zbek tili lug'at boyligini to'liq o'zlashtirib olishlarini ta'minlashdir. Ma'lumki, jam iyatda til kishilar o'rtasidagi aloqaning zaruriy vositasidir. Tilning aloqa vositasi sifatidagi ahamiyati uzluksiz ortib boradi. Til borliqni oqilona, m antiqiy bilish vositasidir. Til birliklari yordamidagina bilish jarayonida umumlashtirish, tushunchani m uhokam a va xulosa bilan bog'lash amalga oshadi.

Til va nutq tafakkur bilan uzviy bog'lanadi. Tilni egallash va nutq o'stirish bilan o'quvchining fikrlash qobiliyati ham o'sib boradi. Maktabning vazifasi tilni kishilar orasidagi m unosabatning rivojlangan nozik quroliga aylantirish hisoblanadi. Metodik fan sifatida ona tili o'qitish metodikasi boshlang'ich ta'lim standard belgilab bergan vazifalarni amalga oshiradi, ya'ni tafakkur qilish faoliyatlarini kengaytirish, erkin fikrlay olish, o'z fikrini og'zaki va yozma ravishda ravon bayon qila olish, jamiyat a'zolari bilan erkin uloqotda bo'la olish ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga oid metod va usullami ishlab chiqadi. Bilish nazariyasiga ko'ra analitik-sintetik ishlar yordamida til ustida kuzatishdan um umiy xulosa chiqarishga, nazariy ta'rif va qoidaga, shular asosida yana og'zaki va yozma tarzdagi nutqiy aloqaga, to 'g'ri yozuv va to'g'ri talaffuzga o'tiladi. O'quvchilar jonli nutqiy aloqaga to 'g'ri talaffuz va to'g'ri yozuvni elementar nazariy ma'lum otlar asosida amaliy egallash orqali kirishadilar. Ular til materiallarini kuzatish, tahlil qilish orqali elem entar nazariy qoidalar chiqaradilar, o'rgangan va o'zlashtirilgan nazariy qoidalarni amaliyotga ongli ravishda tatbiq etadilar. Maktabda ona tili o'qitish metodikasining bunday yo'nalishi haqiqatni bilish qonuniyatlariga ham, hozirgi zamon didaktikasi vazifalariga ham mos keladi. „Ta'lim to 'g'risida“gi qonunda ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari belgilab berildi:
— ta'lim va tarbiyaning insonparvar, demokratik xarakterda ekanligi; — ta'limning uzluksizligi va izchilligi; — um um iy o'rta, shuningdek, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limining m ajburiyligi; — o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining yo'nalishini: akademik litseyda yoki kasb-hunar kollejida o'qishni tanlashning ixtiyoriyligi; — ta'lim tizimining dunyoviy xarakterda ekanligi; — davlat ta'lim standartlari doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqligi;

— ta 'lim dasturlarini tanlashga yagona va tabaqalashtirilgan yondashuv; — bilimli bo'lishni va iste'dodni rag'batlantirish; — ta'lim tizimida davlat va jam oat boshqaruvini uyg'unlashtirish Ona tili metodikasi umumiyligi pedagogika bilan ham o'zaro bog'lanadi. Maktab ta 'limidagi har bir o'quv predmeti, shu jum ladan ona tili ham, faqat bilim berish, ko'nikm a va malaka hosil qilish bilangina cheklanmay, bolaning ongini oshirishi va tarbiyalashi ham zarur. Haqiqatan ham, ona tili o'qitish jarayonida bolalaming dunyoqarashi shakllanadi, bilish qobiliyatları o'sadi, ular aqliy, axloqiy, estetik tom ondan rivojlanadi, xarakterida m a'lum ijobiy xususiyatlar yuzaga keladi, m ehnat qilishga o'rganadi va hokazo. Pedagogika fani bolalarni har tom onlam a rivojlantirish va ularni tarbiyalash masalalarini ilmiy tom ondan ishlab beradi. Ona tili o'qitish metodikasi pedagogika fani yangiliklariga, uning yuqorida qayd etilgan masalalarni ilmiy tom ondan ishlab bergen m a'lumotlariga tayanadi. Ona tili metodikasini umumiyligi pedagogika bilan bog'lash ayniqsa boshlang'ich sinflarda muhimdir. Kichik yoshdagi o'quvchilarning jamoaviy va shaxsiy o'quv faoliyatida zarur bo'lgan ko'p odat va ko'nikmalari hali tarbiyalanmagan bo'ladi. Tashkilotcnilik, jamoa ishiga tez kirishish, e'tibor bilan eshitish, o'qish va yozish, faol va mustaqil ishlash, barcha ishlarni puxta va saranjom bajarish kabi ko'nikma va odatlar o'qituvchi va maktab tom onidan amalga oshiriladigan umumpedagogik tadbirlar tizimini tashkil etadi.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. A. Zunnunov va boshq. Adabiyot o'qitish metodikasi. — T.: „O'qituvchi” 41, 1992.
2. A. Rafiyev. Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosi va imlosi. — T.: 2003.
3. A. G'ulomov. Ona tili o'qitish prinsiplari va metodlari. - T.: „O'qituvchi”, 1992.
4. B. Ma'qulova, T. Adashboyev. Kitobim - oftobim (1 -sinf uchunsinfdan tashqari o'qish kitobi). — T.: „O'qituvchi”, 1999.
5. B. Ma'qulova, S. Sa'diyeva. Sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlaii(1-sinf o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma). — T.: „O'qituvchi”, 1997.
6. B. Ma'qulova, S. Matchon. Kitobim-oftobim (2-sinf uchun sindan tashqari o'qish kitobi). — T.: „O'qituvchi”, 2000.